



## FRANSUZ MILLATINING O'ZIGA XOSLIGI VA MILLIY XARAKTERI

**Rustamova Muxlisaxon Sa'dullo qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada fransuz millatining xarakteri, muomala madaniyati, odob-axloqi va nutqida dastlabki qarashlarni o'rganish yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:**

Xarakter millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish, tushuntirib berish uchun shu millatning hayotini, tarixini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Milliy xarakterga qanday sifatlarni kiritish mumkin? Shuni ta'kidlash kerakki, "milliy xarakter" tushunchasi haqida hali ham umumiy bo'lgan bir xil qarash mavjud bo'lmasa ham lekin, unga kiruvchi xislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud. Bu o'rinda ayniqsa milliy va ijtimoiy xulq-atvoriga oid xarakter sifatlarning o'zaro bog'liq ekanligini unutmashlik lozim.

Har bir millatning turlicha xarakter hislatlariga ega bo'lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakterning shakllanishida yetakchi ro'l o'ynaydi. XIX asrda turli xalqlarning etnopsixologik xususiyatlarini o'rgangan ko'plab mualliflar o'z asarlarida milliy xarakter real voqelik sifatida mavjudligini e'tirof etgan.

Masalan faylasuflar E.Frediz Angliya tarixini o'rganar ekan, fransuz va nemislarga aslida xos bo'lmagan lekin davrlar o'tib shakllanib borayotgan mustaqillik, o'ziga xos ishonch xususiyatlarining rivojlanganini ko'rsatib beradi. Diqqat qilib o'rganish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-birdan farq qiluvchi xususiyatlar borligini bilib olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni hatto kundalik hayotda ham ko'plab uchratamiz.

Har bir millatning mentaliteti va xususiyatlari xarakterlari o'zgacha ko'rinishdadir. Fransuzlarning asosiy farq qiluvchi xarakterlaridan biri bu ularni har bir ish uchun jilmayishidir. Ular sizni bezovta qilishsa yoki sizdan norozi bo'lishsa ham doimo tabassum qilishadi. Biroq, bu sifatni yomon deb atab bo'lmaydi, bundan tashqari, fransuzlar juda do'stona xalqdir.

Fransuzlarni umuminsoniy qadriyatlariga ega bo'lgan inklyuziv millat sifatida tarixchi Jerar Noiriell ta'rif bergan. Istalgan umuminsoniy qadriyatlar haqiqatan ham an'anaviy fransuz qadriyatlari va madaniy me'yorlariga rioya qilishlari kerak. Fransuzlarning xarakteri muloyim, ular hatto baxtsiz hodisadan keyin ham ko'pincha yo'l inspektorlarini chaqirmaydilar va muammoni tinchlik bilan hal qilishadi. Bundan tashqari fransuzlar juda hush muomalaligi bilan ham boshqa millatlardan farq qiladi.



Agar biror fransuz kelib sizga har qanday narsa haqida gapirishni boshlasa ajablanmang, hatto notanish odamni ham ikki yuzidan ikki marta o'pish va xayrlashish odatlari mavjud.

Misol tariqasida ko'rishimiz mumkinki, Fransiyaning janubiy hududlarida odamlar yanada mehribon biror bir insonni to'rt marotaba o'pib salomlashish odob-axloq me'yori hisoblanadi. Fransuzlar bir-birlari bilan salomlashganda: agar ular bir-birlarini shunchaki tanisalar, qo'l siqishadi. Agar yaqin do'stlar, qarindoshlar bo'lsa ikki yuzidan o'pishib o'z suxbatdoshiga qiziqish, hurmat ko'rsatishadi.

Notanish odamlarga murojaat qilganda va tantanali marosimlarda har qanday salomlashishga, hatto familiyasiz ham, an'anaviy hush muomalalik shakllarini "monsieur", "madame" yoki "mademoiselle" so'zlarini qo'shish orqali hurmatini ta'kidlash odatiy holdir.

Shuningdek, Fransuzlarning kiyinish uslubi noodatiy, juda jozibali kiyimlarda kiyinadilar, turli zanjirlar va soatlar taqib kiyimlarini bezaydilar va o'zlarining shaxsiy soch turmaklarini qilishadi. Fransuzlar asosan yorqin ranglarda kiyinadilar. Fransiya'dagi kiyinish qoidalariga turist ham amal qilishi kerak. Haqiqiy fransuz kabi kiyingan mehmonni ko'chada chiroyli nigoh bilan qarshi olishi yoki hech bo'lmaganda boshi bilan ishora qilib kulib, kutib olishi mumkin.

Agar e'tibor qaratsak fransuzlarning yana bir milliy xarakteri bor, sayyoh bino ichida soyabondan foydalansa, mehmonxona qabulxonasidan haydab chiqarishi mumkin. Fransiya'da soyabonlar uchun eshik oldida maxsus savatlar mavjud. Shu bilan birga Fransiya'da mehmonxona, do'kon yoki restoranga kirayotganda har doim xodimlar bilan salomlashish kerak. Mahalliy fransuzlar uchun odob-axloq qoidalari muqaddasdir, ularga rioya qilmaganlarga xizmat ko'rsatilmaydi.

Masalan: xushmuomalalik, jasoratlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi hislatlar hamma xalqlarga xos bo'lgan xususiyat bo'lgan holda, bu xislatlarning o'zining namoyon bo'lishi, tuzilishi jihatidan barcha xalqlarda bir xil kechmagani kabi fransuzlarning ham milliy xarakterlarida xushmuomalalik bilan mahalliy aholi o'rtasida muloqot qilish boshqa yevropaliklarga qaraganda qiyinroq emas. Shuningdek, fransuzlarda jamiyat joylarida boshqalarga nisbatan umumiy qat'iy muloyim munosabatda bo'lgan holda begonalariga tabassum qilish odatiy holga aylangan.

Bundan ko'rinib turibdiki, fransuzlar birinchi navbatda hamma narsada xushmuomalalik va jasoratni qadrlashadi. Shu bilan birga fransuzlarning o'zi tashqi ta'sirlarga nisbatan ajoyib qarshiliklarga ega bo'lib, o'z tilini, an'analarni, turmush tarzini, muomala madaniyatini milliy xarakteri o'zlikni anglash tuyg'usini boshqa ko'plab mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori darajada saqlab qolgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlangan milliy xarakterlar hech qaysi xalqda yoki millatda mavjud emasligini fransuz xalqining o'ziga xosligini ko'rishimiz mumkin. Milliy xarakterni o'rganishda tadqiqotchilar xarakterning qaysi bir xususiyatini olib ko'rmaylik, albatta uning barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini





ko'ramiz. Ushu xarakterlar o'sha millatning boshqalardan ajralib turishiga hamda o'z xalqining alohida o'rni borligini bildiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Sattor "O'zbek udumlari". Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2016.
2. Jacques Dupâquier, Histoire de la population française, 4 vol., Paris, Presses universitaires de France, collection « Quadrige », mai 1995.
3. Jurayeva Shalola Xusanboyeva, "On the expression of words from french lanuage to uzbek language". American journal of social and humanitarian research vol 2 no 9,119,120,121.
4. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2021) L'interculturel en francais langue etrengere. Международная научно-практическая конференция. 3 (3) 135-137.
5. Shalola Jurayeva Xusanboyevna. Fransiya adabiyotida romantik janr va romantik san'at, Ilm fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari 2022/3/24. Pages 69-72.
6. Fransiyaning urf-odatları giga fox.ru
7. Milliy xarakter fayllar.org.